Kompyuter ma’lumotlariga bevosita ta’sir qilinganda mazkur zanjir boshqacha tuziladi. Aybdor tizimga yolg‘on ma’lumot kiritishi, haqiqiy yozuvni o‘zgartirishi, operatsiya shartini bekor qilishi yoki algoritm natijasini burishi mumkin. Bu yerda mulkiy natijani insonning yanglish qarori emas, o‘zgartirilgan ma’lumot asosida ishlagan avtomatlashtirilgan jarayon yuzaga keltiradi. Shu bois raqamli jinoyatni farqlashda usul yordamchi belgi emas, ko‘p hollarda tarkibni shakllantiruvchi belgi vazifasini bajaradi. Jinoyat sodir etish usuli to‘g‘risida G.G. Zuykov, A.V. Samoylov, G.A. Gustov fikr bildirar ekan, jinoyat sodir etish usulini obyektiv tomonning majburiy belgisi sifatida ko‘rib, “u har bir jinoyat uchun xos va ko‘p hollarda jinoyatni kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi” deb ta’kidlaydilar (Zuykov, 1971). Biroq bu qoidani raqamli muhitga tatbiq etganda usulni texnik vositalar ro‘yxati bilan ifodalash yetarli emas. Chunki telefon, kompyuter, messenjer yoki vebsayt turli jinoyatlarda bir xil ishlatilishi mumkin. Huquqiy ahamiyatga ega belgi qurilmaning nomi emas, u orqali jabrlanuvchining irodasiga yoki axborot tizimining ishlash jarayoniga ta’sir qilinganidir.

Obyektiv harakat bilan subyektiv yo‘nalish o‘zaro ajratilmasligi ham shu qatorda turadi. A.I. Rarog (2003) aybning shakli va motivlarini to‘g‘ri aniqlash jinoiy qilmishni to‘g‘ri baholashning zaruriy sharti ekanligini asoslab bergan. Kompyuter tizimiga kirishning o‘zi mulkni egallash qasdini avtomatik ravishda anglatmagani kabi, mulkiy naf olish maqsadining mavjudligi ham har qanday texnik harakatni firibgarlikka aylantirmaydi. Aynan qasd qaysi natijaga yo‘naltirilgani, aybdor tanlagan usul qaysi huquqiy munosabatni bevosita buzgani va mulkning o‘tishiga qaysi harakat sabab bo‘lgani birgalikda tekshirilishi lozim.

Ushbu mezonning isbotlash bilan bog‘liqligini A.P. Paskevich va D.N. Belov (2023) kuzatuvlari yaqqol ko‘rsatadi. Ular raqamli firibgarlik mexanizmi maxsus ko‘nikma va malakalar qo‘llanishini nazarda tutishi, jabrlanuvchi esa bunday bilimga ega bo‘lmagani uchun voqeani oddiy so‘zlar bilan tushuntirishi mumkinligini qayd etadi. Bundan kelib chiqadiki, jabrlanuvchining voqeani firibgarlik deb atashi yoki pulni kimga o‘tkazganini bilmasligi yuridik xulosa o‘rnini bosa olmaydi. Tergov organi axborot almashinuvi izchilligini, autentifikatsiya usulini, tranzaksiya tashabbuskorini, ma’lumotlarga kiritilgan o‘zgarishni va operatsiya qaysi shart bajarilganda avtomatik amalga oshganini tiklashi lozim. Shundagina aldov inson qaroriga ta’sir qilganmi yoki natija texnik jarayonni o‘zgartirish orqali hosil bo‘lganmi degan savolga ishonchli javob berish mumkin.

Doktrinada mazkur masala ancha ilgari ko‘tarilgan. Rossiyalik huquqshunos N.A. Lopashenko (2019) o‘zining fundamental tadqiqotida RF JKning 1596-moddasi klassik ma’nodagi firibgarlik bo‘lmay, balki mustaqil talon-taroj shakli ekanligini asoslab bergan. U ushbu moddani “qonun chiqaruvchining xatosi” deb atab, jinoyat tarkibida insonni aldash, jabrlanuvchining ixtiyoriy mulk topshirishi va obyektiv tomonning an’anaviy konstitutiv elementi mavjud emasligini ko‘rsatgan. Ushbu yondashuvning kuchli jihati jinoyat nomini tashqi natijaga emas, uni amalga oshirgan mexanizmga bog‘lash zaruratini ko‘rsatishidadir. M.V. Stepanov (2016) ham kompyuter axboroti sohasidagi qilmishni firibgarlik sifatida baholash uchun aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish fakti aniqlanishi lozimligini ta’kidlaydi. Bundan kelib chiqadigan muhim natija shuki, axborot texnologiyasidan foydalanish kvalifikatsiyalovchi belgi bo‘lishi mumkin, lekin u asosiy tarkibning konstitutiv belgisini almashtira olmaydi. Aks holda jinoyat qonunini o‘xshashlik bo‘yicha qo‘llash xavfi paydo bo‘ladi va firibgarlik bilan kompyuter axborotiga qarshi jinoyatlar o‘rtasidagi chegara yo‘qoladi.

G.V. Sebekova va V.V. Basanov o‘z tadqiqotlarida ushbu harakatlarning kompyuterga,

ya’ni ruhiyati bo‘lmagan jonsiz mashinaga qaratilganligini, bu esa firibgarlikni mazkur ma’noda amalga oshirishni imkonsiz qilishini isbotlab bergan (Tsebekova; Basanov, 2021). Biroq bu tezisni mutlaqlashtirish ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Aybdor tizimga taqdim etgan ma’lumot keyinchalik inson tomonidan ko‘rib chiqilib, mulkiy qaror aynan shu inson tomonidan qabul qilinishi mumkin. Elektron arizaga yolg‘on ma’lumot kiritilib, vakolatli xodim uni ishonchli deb qabul qilsa va to‘lovni tasdiqlasa, aldashning adresati mashina emas, qaror qabul qilgan shaxs bo‘ladi. Shuning uchun axborot kiritilgan obyekt bilan aldash qaratilgan subyektni bir xil deb qabul qilmaslik lozim.

Mazkur mezonni amalda qo‘llash uchun uch bosqichli tekshiruv taklif qilinadi. Birinchi bosqichda mulkiy operatsiyani kim boshlagani va kim tasdiqlagani aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda ushbu qarorga yolg‘on axborot ta’sir qilgani yoki natija ma’lumotlar va dasturiy jarayonga huquqsiz ta’sir orqali avtomatik yuzaga kelgani belgilanadi. Uchinchi bosqichda aybdorning qasdi mulkiy nafni egallashni qamrab olgani hamda texnik ta’sir bilan zarar o‘rtasida bevosita sababiy bog‘lanish mavjudligi tekshiriladi. Agar uchinchi shaxsning mustaqil va ongli qarori sababiy zanjirni o‘zgartirsa, qilmishning tugallanish payti va ishtirokchilik shakli ham alohida baholanishi zarur.

Mazkur xulosa tarkib nomlanishi masalasiga ham bevosita aloqador. A.A. Yujin kompyuter ma’lumotlaridan foydalangan holda sodir etilgan qilmishni firibgarlik emas, mulkni egallash deb nomlash yoki uni kompyuter jinoyatlari tizimiga o‘tkazishni taklif qiladi (Yuzhin, 2016). Nomlanish masalasi faqat terminologik ahamiyatga ega emas, chunki jinoyat nomi huquqni qo‘llovchiga isbotlanishi lozim bo‘lgan markaziy belgini ko‘rsatadi. “Firibgarlik” atamasi qo‘llanganda amaliyot aldashni qidirishga majbur bo‘ladi yoki uni kompyuterga nisbatan sun’iy talqin qiladi. Mulkiy nafni huquqsiz egallash konstruksiyasi tanlanganda esa asosiy e’tibor ma’lumotga ta’sir, mulkiy natija va ular o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishga qaratiladi.

Normaning texnik jihatdan ifodalanishi ham muhim. L.M. Bolsunovskaya (2016) ma’lumotlarni kiritish, o‘chirish, bloklash, o‘zgartirish va tizimga boshqacha aralashish kabi usullarni tahlil qilib, ularni mustaqil harakatlar sifatida ortiqcha maydalashdan saqlanish zarurligini ko‘rsatadi. Qonun texnikasi nuqtayi nazaridan harakat usullarining ochiq ro‘yxati maqbulroq. Chunki raqamli texnologiya tez o‘zgaradi va yangi ta’sir usuli yopiq ro‘yxatdan tashqarida qolishi mumkin. Shu bilan birga, “boshqacha aralashish” degan umumiy ifoda huquqiy aniqlik talabiga javob berishi uchun u kompyuter ma’lumotlarini qayta ishlash jarayonini huquqsiz o‘zgartirish va mulkiy natijaga sabab bo‘lish belgisi bilan chegaralanishi kerak.

Bunga zid yondashuv ham e’tiborga loyiq. S.V. Sheveleva (2017) kompyuter axboroti sohasidagi firibgarlikni firibgarlik tushunchasining tizimli qismi deb ko‘rib, an’anaviy aldash usulining kompyuter vositalari orqali amalga oshirilishini talab qiladi. Bu yondashuv S.V. Brenner (2006) tasnifidagi kompyuter yordamida sodir etiladigan jinoyatlar uchun to‘g‘ri natija beradi. Zero ularda texnologiya an’anaviy jinoyatning ko‘lami, tezligi yoki masofasini oshiradi. Biroq inson irodasiga ta’sir etilmagan, ya’ni kompyuter tizimisiz sodir etilishi mumkin bo‘lmagan qilmishlarni shu konstruksiyaga kiritish asosiy tarkibning chegarasini sun’iy kengaytiradi, chunki ularda jinoiy ta’sirning predmeti va natija hosil bo‘ladigan muhit raqamli ma’lumotlarning o‘zidir. J. Klaf ham an’anaviy aldash jinoyatlarini kompyuterga bevosita qaratilgan qilmishlarga qo‘llash shubhali ekanligini ko‘rsatadi (Clough, 2015). Bundan kompyuter tizimi huquqiy himoyadan tashqarida qoladi degan xulosa kelib chiqmaydi. Aksincha, himoya mexanizmi to‘g‘ri nomlanishi va tarkib belgilari aniq ifodalanishi kerak.

Xalqaro hujjatlar ushbu muammoni aldash tushunchasidan voz kechish yo‘li

bilan hal qilgan. Budapesht konvensiyasining 8-moddasi kompyuter ma'lumotlarini kiritish, o'zgartirish, o'chirish yoki yashirish, shuningdek, tizim ishlashiga aralashish orqali boshqa shaxsga mulkiy zarar yetkazish va o'zi yoxud boshqa shaxs uchun huquqsiz iqtisodiy naf olish niyatini jinoiylashtirishni nazarda tutadi (Council of Europe, 2001). Bu modelning afzalligi texnik harakatning mustaqil maqsad emas, mulkiy zarar va noqonuniy iqtisodiy naf bilan bog'langanidadir. Natijada oddiy texnik qoidabuzarlik bilan mulkiy jinoyat o'rtasidagi chegara saqlanib qoladi.

Milliy qonunchiliklar darajasida ikki xil yechim shakllangan. Germaniya Jinoyat kodeksining 263ª-paragrafi kompyuter firibgarligini alohida tarkib sifatida belgilab, dasturni noto'g'ri shakllantirish, noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlardan foydalanish, ma'lumotlardan huquqsiz foydalanish va qayta ishlash jarayoniga boshqacha huquqsiz ta'sir qilish usullarini qamrab oladi (Federal Republic of Germany, 1998). Nemis modelida aldovga funksional ekvivalent bo'lgan ta'sir izlanadi, uning kamchiligi esa aldovga ekvivalentlik mezoni murakkab avtomatlashtirilgan operatsiyalarda bahsli talqinlarga olib kelishidir. Buyuk Britaniyaning 2006-yilgi Firibgarlik to'g'risidagi qonuni boshqacha yo'lni tanlab, yolg'on taqdimotni natijaga emas, halol bo'lmagan harakatga asoslangan tarkib sifatida belgilaydi va taqdimot axborotni qabul qilish, yetkazish yoki unga javob berish uchun mo'ljallangan tizimga yuborilganda ham amalga oshirilgan deb hisoblanishini nazarda tutadi (United Kingdom Parliament, 2006). Bu yondashuv isbotlashni yengillashtiradi, lekin to'liq ko'chirilsa, firibgarlikning mulkiy tabiati va jabrlanuvchining ishtirokiga oid shakllangan doktrina bilan ziddiyatga kiradi.

Jinoyat predmetini belgilashda Yevropa Ittifoqining 2019/713 Direktivasi diqqatga sazovor. U naqd pulsiz to'lov vositasi tushunchasiga elektron pul va virtual valyutani ham kiritadi. Uning 6-moddasi esa axborot tizimi ishiga huquqsiz to'sqinlik qilish yoxud kompyuter ma'lumotlarini kiritish, o'zgartirish, o'chirish, uzatish va yashirish orqali pul, mulkiy qiymat yoki virtual valyutaning o'tkazilishiga sabab bo'lishni qamrab oladi (European Parliament and Council of the European Union, 2019). Mazkur yondashuv raqamli aktivning huquqiy shaklidan ko'ra iqtisodiy funksiyasiga ustuvor ahamiyat beradi. Belarus Jinoyat kodeksining 212-moddasi esa kompyuter axborotini modifikatsiya qilish orqali mulkni egallashni mustaqil tarkib sifatida belgilab, firibgarlikning klassik doktrinasiga daxl qilmasdan ma'lumotga ta'sir orqali mulkiy natija yuzaga kelgan holatni qamrab oladi (Republic of Belarus, 1999).

Qiyosiy tahlil uchta asosiy qonunchilik modelini ajratish imkonini beradi. Birinchi model axborot texnologiyasidan foydalanishni an'anaviy firibgarlikning og'irlashtiruvchi belgisi deb qaraydi. Ikkinchi model kompyuter ma'lumotlariga ta'sir qilish orqali mulkiy naf olishni mustaqil tarkib sifatida belgilaydi. Uchinchi model firibgarlik tushunchasini xulq asosida kengaytirib, inson bilan bir qatorda tizimga berilgan yolg'on taqdimotni ham qamrab oladi. O'zbekiston uchun birinchi va ikkinchi modelni birgalikda qo'llash eng izchil yechim hisoblanadi, ya'ni insonni aldashda 168-modda saqlanadi, inson irodasisiz avtomatlashtirilgan jarayonga ta'sir qilishda esa mustaqil norma qo'llanadi.

Amaldagi milliy tartibga solish holati ushbu xulosani tasdiqlaydi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasi firibgarlikni aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoxud unga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish deb belgilaydi. 2026-yilgi o'zgartishlardan keyin axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etish 168-modda uchinchi qismining "v" bandida nazarda tutilgan (Republic of Uzbekistan, 1994). Mazkur o'zgarish band harfini va sanksiya tizimini yangilagan bo'lsa ham, aso-

siy doktrinal masalani hal etmagan. Chunki kvalifikatsiyalovchi belgi asosiy tarkibdagi aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish talabini bekor qilmaydi. Demak, ushbu band faqat inson irodasiga raqamli vosita orqali ta'sir qilingan holatlarga tatbiq etilishi kerak.

Sud amaliyotida esa ushbu mantiq to'liq izchil ifodalanmagan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2023-yil 23-iyundagi 17-sonli qarori axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlikni kompyuter tizimidagi axborotni o'zgartirish yoki yolg'on axborot kiritish orqali amalga oshirish mumkinligini ko'rsatadi. Ayni paytda qarorda jabrlanuvchi aldov yoki ishonchi suiiste'mol qilinishi oqibatida mulkini aybdor egaligiga ixtiyoriy ravishda o'tkazishi mezoni ham belgilangan (Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 2023). Ushbu ikki qoida birgalikda talqin qilinganda axborotni o'zgartirishning o'zi yetarli emasligi, u jabrlanuvchining mulkni o'tkazish haqidagi yanglish qaroriga sabab bo'lishi lozimligi kelib chiqadi. Aks holda qarorning birinchi qoidasi 168-modda dispozitsiyasini qonun matnidan tashqari kengaytirib yuboradi. Bundan tashqari, tushuntirishdagi havola 2026-yilgi o'zgarishdan keyin texnik jihatdan ham yangilanishi, ya'ni uchinchi qismning "g" bandi o'rniga "v" bandi ko'rsatilishi lozim.

Milliy doktrinada bu masala bo'yicha ikki yo'nalishdagi takliflar bildirilgan. A.B. Kasimov (2022) telekommunikatsiya tarmoqlari, internet yoki elektron to'lov vositalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik uchun alohida kvalifikatsiyalovchi belgi belgilashni taklif qiladi. Mazkur taklif masofaviy aloqa orqali sodir etiladigan firibgarlikning ijtimoiy xavfini hisobga olish nuqtayi nazaridan asosli, zero bunday aloqa bir vaqtning o'zida ko'p jabrlanuvchiga ta'sir qilish, shaxsni aniqlashni qiyinlashtirish va jinoiy daromadni tez tarqatish imkonini beradi. R.S. Altiyev esa klassik firibgarlikdagi aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish talabi inson aldanmasdan dasturiy ta'minot yoki ma'lumotlar manipulyatsiya qilingan holatlarni to'liq qamrab olmasligini qayd etadi (Altiev, 2019). Bu O'zbekiston qonunchiligidagi asosiy doktrinal bo'shliqni ifodalaydi. Masala jinoiy javobgarlikning umuman mavjud emasligida emas, chunki ayrim qilmishlar axborotlashtirish qoidalarini buzish yoki kompyuter axborotidan qonunga xilof foydalanish normalari bilan qamrab olinishi mumkin. Muammo mulkiy nafni egallashga qaratilgan yagona harakatning axborot xavfsizligi va mulkiy zarar belgilarini bir tarkibda aks ettiradigan norma mavjud emasligidadir.

Shu bois taklif etilayotgan mustaqil tarkibning belgilarini aniq ifodalash zarur. Uning bevosita obyekti mulkiy munosabatlar bo'lishi, axborot tizimining ishonchli ishlashi esa qo'shimcha obyekt sifatida tan olinishi lozim. Jinoyat predmeti o'zganing mulki, mulkka bo'lgan huquq, pul mablag'i, elektron pul, virtual aktiv yoki iqtisodiy qiymatni ifodalovchi boshqa raqamli yozuv bo'lishi mumkin. Obyektiv tomon kompyuter ma'lumotlarini huquqsiz kiritish, o'zgartirish, o'chirish, bloklash, uzatish yoxud axborot tizimining ishlashiga boshqacha huquqsiz ta'sir ko'rsatish va shu harakat natijasida mulkiy operatsiyaning amalga oshirilishi, mulkiy naf olinishi hamda boshqa shaxsga zarar yetkazilishidan iborat bo'ladi.

Dispozitsiyada har qanday huquqsiz texnik aralashuv emas, aynan mulkiy natijaga sabab bo'lgan aralashuv qamrab olinishi zarur. Sababiy bog'lanishni aniqlash uchun ma'lumotga ta'sir bo'lmaganida operatsiya amalga osharmidi degan nazorat savolidan foydalanish mumkin. Agar operatsiya baribir bajarilishi muqarrar bo'lsa, texnik harakat mulkiy natijaning sababi emas va mustaqil ravishda axborot xavfsizligiga qarshi jinoyat sifatida baholanadi. Agar operatsiya aynan o'zgartirilgan ma'lumot yoki buzilgan algoritm sabab yuzaga kelsa, taklif etilayotgan tarkibning obyektiv bog'lanishi mavjud bo'ladi.

Subyektiv tomon to'g'ri qasd va o'zi yoxud boshqa shaxs uchun huquqsiz mulkiy

naf olish maqsadini talab qilishi lozim. Bu maqsad tarkibni ehtiyotsiz texnik xatodan, vakolat doirasini noto‘g‘ri anglashdan va mulkiy yo‘nalishga ega bo‘lmagan qilmishlardan ajratadi. Naf amalda olinmagan, lekin ma’lumotga ta’sir qilinib mulkiy operatsiya boshlangan holatda suiqasd qoidalari qo‘llanadi. Jinoyat mulkiy qiymat aybdor yoki u ko‘rsatgan shaxs tasarrufiga o‘tgan yoxud jabrlanuvchi uni nazorat qilish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan paytda tugallangan hisoblanishi maqbul.

Yondosh tarkiblardan chegaralashda hal qiluvchi mezon jabrlanuvchining yanglish qarori bo‘ladi. Jabrlanuvchi yoki mulkiy vakolatga ega boshqa shaxs yolg‘on axborot ta’sirida operatsiyani tasdiqlasa, 168-modda qo‘llanadi. Aybdor boshqa shaxsning haqiqiy ma’lumotlaridan uning irodasisiz foydalanib mulkni yashirin egallasa, o‘g‘rilik tarkibi baholanadi. Mulkiy operatsiya kompyuter ma’lumotlariga ta’sir natijasida inson tasdig‘isiz avtomatik amalga oshsa, taklif etilayotgan mustaqil tarkib qo‘llanadi.

Normalar majmuyini avtomatik qo‘llash esa maqbul emas. Agar ruxsatsiz kirish kompyuter ma’lumotlariga mulkiy maqsadda ta’sir ko‘rsatishning zarur usuli bo‘lib, uning ijtimoiy xavfi yangi maxsus tarkib sanksiyasida to‘liq hisobga olinsa, maxsus norma umumiy normani qamrab olishi mumkin. Agar kirish natijasida qo‘shimcha ravishda axborot yo‘q qilinsa, tizim ishi jiddiy buzilsa yoki boshqa mustaqil zarar kelib chiqsa, jinoyatlar majmuyi asosli bo‘ladi. Bu masala Oliy Sud Plenumi tushuntirishida natija, qasd va qo‘shimcha obyekt mezonlari orqali aniq ifodalanishi zarur.

O‘tkazilgan tahlil raqamli muhitdagi mulkiy jinoyatlarni texnologiya ishlatilgani faktiga qarab kvalifikatsiya qilish yetarli emasligini ko‘rsatdi. Hal qiluvchi mezon mulkiy natijani yuzaga keltirgan mexanizmdir. Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan, Jinoyat kodeksida kompyuter ma’lumotlariga huquqsiz ta’sir ko‘rsatish orqali mulkiy nafni egallash uchun mustaqil jinoyat tarkibini belgilash maqsadga muvofiq. Norma ma’lumotlarni kiritish, o‘zgartirish, o‘chirish, bloklash, uzatish yoki tizim ishiga boshqacha huquqsiz ta’sir qilishni, ushbu harakat bilan mulkiy zarar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishni va huquqsiz mulkiy naf olish maqsadini majburiy belgi sifatida qamrab olishi kerak.

Ikkinchidan, 168-modda uchinchi qismi “v” bandi faqat insonni axborot texnologiyalari orqali aldash yoki uning ishonchini suiiste’mol qilish holatlariga tatbiq etilishi qonun va sud tushuntirishida aniq qayd etilishi lozim. Axborot tizimiga yolg‘on ma’lumot kiritishning o‘zi agar u insonning yanglish qaroriga sabab bo‘lmagan bo‘lsa, firibgarlik uchun yetarli deb hisoblanmasligi kerak.

Uchinchidan, O‘zR Oliy Sudi Plenumining 2023-yil 23-iyundagi 17-sonli qarori 22-bandi amaldagi qonun tahririga muvofiqlashtirilishi, undagi “g” bandiga havola “v” bandga almashtirilishi hamda inson irodasiga qaratilgan raqamli aldov bilan avtomatlashtirilgan jarayonga bevosita ta’sir o‘rtasidagi farq ochiq ko‘rsatilishi zarur.

To‘rtinchidan, yangi tarkibning firibgarlik, o‘g‘rilik va kompyuter axboroti sohasidagi jinoyatlar bilan chegarasi Plenum darajasida yagona algoritm asosida tushuntirilishi kerak. Algoritm mulkiy operatsiya tashabbuskori, jabrlanuvchining yanglish qarori, ma’lumotga huquqsiz ta’sir, sababiy bog‘lanish, mulkiy naf maqsadi va qo‘shimcha zararni izchil tekshirishni nazarda tutishi lozim.

Beshinchidan, jinoyat predmeti tushunchasi elektron pul, virtual aktiv, raqamli hamyondagi qiymat va iqtisodiy qiymatni ifodalovchi boshqa raqamli yozuvlarni qamrab oladigan tarzda ifodalanishi maqsadga muvofiq. Bu yechim jinoyat qonunini muayyan texnologiya nomi bilan bog‘lab qo‘ymaydi va kelgusida paydo bo‘ladigan yangi raqamli qiymat shakllariga nisbatan huquqiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Oltinchidan, moddiy norma islohoti raqamli dalillarni saqlab qolish va olishga oid protsessual mexanizmlar bilan uyg‘un amalga oshirilishi lozim. Kops va Gudvin bulutli texnologiyalar sharoitida an’anaviy o‘zaro huquqiy yordam tartiblari raqamli dalillarning tez o‘zgaruvchan tabiati uchun sekinlik qilishini asoslaydi (Koops & Goodwin, 2014). Tranzaksiya jurnali, autentifikatsiya ma’lumoti, qurilma identifikatori, dasturiy o‘zgarish izi va provayder ma’lumotini qonuniy tartibda tezkor qayd etish imkoniyati bo‘lmasa, eng aniq jinoyat tarkibi ham amaliyotda samarali ishlamaydi.

Xulosa

Raqamli muhitda sodir etiladigan mulkiy tajovuzlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishda hal qiluvchi mezon axborot texnologiyalaridan foydalanishning o‘zi emas, balki mulkiy natijani yuzaga keltirgan huquqiy mexanizm hisoblanadi. Jabrlanuvchining aldov ta’sirida mulkni o‘tkazish haqidagi qaror qabul qilishi firibgarlikni, o‘zganing mulkini uning irodasiga xilof ravishda yashirin egallash o‘g‘rilikni, kompyuter ma’lumotlariga huquqsiz ta’sir ko‘rsatish natijasida mulkiy operatsiyaning avtomatik amalga oshirilishi esa mustaqil jinoyat tarkibini farqlashni taqozo etadi.

Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida kompyuter ma’lumotlariga huquqsiz ta’sir ko‘rsatish orqali mulkiy nafni egallash uchun alohida jinoyat tarkibini belgilash, firibgarlik normasining qo‘llanish chegaralarini aniqlashtirish hamda Oliy Sud Plenumi tushuntirishlarini tegishli qonunchilikka muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq. Bunda jinoyat predmetini elektron pul, virtual aktivlar va boshqa raqamli qiymatlarni qamrab oladigan tarzda belgilash, shuningdek, raqamli dalillarni to‘plash va saqlashning samarali protsessual mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, taklif etilayotgan yondashuv raqamli muhitdagi mulkiy tajovuzlarni kvalifikatsiya qilishda huquqiy aniqlikni ta’minlash, yondosh jinoyat tarkiblari o‘rtasidagi chegaralarni belgilash hamda zamonaviy texnologiyalar vositasida sodir etiladigan mulkiy jinoyatlarga qarshi kurashishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

Altiev, R. S. (2019). History of development of legislative acts providing criminal liability for fraud in the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan. *Journal of Legal Studies*, *4*(4), 40–45.

Bolsunovskaya, L. M. (2016). Kriminalizatsiya moshennichestva v sfere kompyuternoy informatsii v rossiyskom prave [Criminalization of fraud in the sphere of computer information in Russian law]. *Criminologist’s Library*, (3), 15–20.

Brenner, S. W. (2006). Cybercrime jurisdiction. *Crime, Law and Social Change*, *46*(4–5), 197–204.

Clough, J. (2015). *Principles of cybercrime* (2nd ed.). Cambridge University Press.

Council of Europe. (2001, November 23). *Convention on cybercrime (Budapest Convention)* (ETS No. 185). https://rm.coe.int/1680081561

European Parliament and Council of the European Union. (2019, April 17). Directive (EU) 2019/713 on combating fraud and counterfeiting of non-cash means of payment. *Official Journal of the European Union*, L 123, 18–29.

Federal Republic of Germany. (1998). *Criminal Code of the Federal Republic of Germany*. Federal Ministry of Justice.

Kasimov, A. B. (2022). Firibgarlik jinoyati uchun javobgarlikni takomillashtirish masalalari [Issues of improving liability for the crime of fraud]. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, *2*(4), 929–935.

Koops, B.-J., & Goodwin, M. (2014). Cyberspace, the cloud, and cross-border criminal investigation: The limits and possibilities of international law. *SSRN Electronic Journal*. https://doi.org/10.2139/ssrn.2698263

Kudryavtsev, V. N. (2004). *Obshchaya teoriya kvalifikatsii prestupleniy* [General theory of crime qualification] (2nd ed.). Yurist.

Lopashenko, N. A. (2019). Kompyuternoe moshennichestvo — novoe slovo v ponimanii khishcheniya ili oshibka zakonodatelya [Computer fraud — A new word in understanding theft or a mistake of the legislator]. *Perm Legal Almanac*, (1), 598–609.

Patskevich, A. P., & Belov, D. N. (2023). *Ispolsovanie informatsionnykh tekhnologiy na pervonachalnom etape rassledovaniya moshennichestva* [The use of information technology at the initial stage of fraud investigation]. Belarusian State University.

Rarog, A. I. (2003). *Kvalifikatsiya prestupleniy po subyektivnym priznakam* [Qualification of crimes based on subjective signs]. Legal Center Press.

Republic of Belarus. (1999). *Criminal Code of the Republic of Belarus.* National Center of Legal Information of the Republic of Belarus.

Republic of Uzbekistan. (1994). *Criminal Code of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. https://lex.uz/docs/-111453

Sheveleva, S. V. (2017). Moshennichestvo v sfere kompyuternoy informatsii: osobennosti kvalifikatsii i konkurentsii so smezhnymi sostavami prestupleniy [Computer information fraud: Qualification features and competition with related crime elements]. *Bulletin of the Nizhny Novgorod Academy of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, (4), 230.

Stepanov, M. V. (2016). Kriticheskiy analiz normy o moshennichestve v sfere kompyuternoy informatsii [Critical analysis of the norm on fraud in the field of computer information]. *Bulletin of the Nizhny Novgorod Academy of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, (1), 173–178.

Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (2023, June 23). *On judicial practice in fraud cases (Resolution No. 17).* Lex.uz. https://lex.uz/docs/6523582

Tsebekova, G. V., & Basanov, V. V. (2021). Corpus delicti characteristics provided by the Criminal Code of the Russian Federation. *European Proceedings of Social and Behavioural Sciences*, *108*, 1598–1604.

United Kingdom Parliament. (2006). *Fraud Act 2006*. UK Statute Law Database. https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2006/35

Yuzhin, A. A. (2016). *Moshennichestvo i ego vidy v rossiyskom ugolovnom prave* [Fraud and its types in Russian criminal law] (Candidate dissertation). Moscow State University of Law.

Zuykov, G. G. (1971). Kriminalisticheskoe uchenie o sposobe sovershenia prestupleniya [Forensic doctrine on the method of committing a crime]. *Socialist Legality*, (11), 22.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 5-SON

VOLUME 6 / ISSUE 5 / 2026

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.65

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence